QASHQADARYO VILOYATI
QARSHI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180200, Qarshi tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 19-uy. Telefon/faks: (+99875) 572-16-24, qarshit@exat.uz

2022 - yil 28 - iyun 284-4-59-Q/22 Qarshi tuman hokimligi

Qarshi tumanida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish Qoidalariga muvofiq, tuman hududida dam olish kunlari yarmarkalarini tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qarshi tumanidagi fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining yarmarkalar o‘tkazish bo‘yicha bergan taqdimnomalarini inobatga olib, “Saloxiddin kafolat” MCHJ savdo majmuasi hududida har shanba va yakshanba kunlari soat 07-00 dan 17-00 gacha yarmarkalar tashkil etilishi belgilansin.

2. Yarmarkalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo‘lgan nooziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishi;

yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishi;

yarmarkalar uchun ajratilgan savdo o‘rinlarining toza va tartibli saqlanishiga sotuvchilar mas’ul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Yarmarkalarda mahsulotlarni sotish quyidagi hujjatlar mavjud bo‘lgan

taqdirda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin:

tovarga oid hujjatlar (tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan sotilayotgan mahsulot jismoniy shaxs tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shakldagi hujjat (ma’lumotnoma));

sotuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar.

4. “Saloxiddin kafolat” MCHJ savdo majmuasi ma’muriyati:

yarmarkalar tashkil etish uchun savdo majmuaning aholi uchun qulay bo‘lgan qismidan, savdo majmuaning umumiy savdo maydonining 5 foizidan kam bo‘lmagan maxsus joylar ajratilishini;

yarmarkalar uchun ajratilgan hududdan savdo o‘rinlarining bepul berilishini;

yarmarkalar o‘tkazilishini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishni ta’minlasin va savdo majmuaning kirish joylariga e’lonlar joylashtirishni tashkil etilishini inobatga olsin.

5. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Badalov) har yakshanba kunlari yarmarkalar tashkil etish uchun joy ajratilganligini, o‘tkazilayotganligini hamda yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishini hamda yarmarkalarda tovarga oid hujjatlar mavjudligini doimiy nazorat qilsin.

6. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani bo‘limi (I.Mashtinov) yarmarkalarda sotilayotgan mahsulotlarning turlariga qarab joylashtirish va ular sifatining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga to‘g‘ri kelishini doimiy nazoratga olsin.

7. Qarshi tuman Ichki ishlar bo‘limi (N.Ovlayev) savdo majmua hududida yarmarkalar o‘tkaziladigan kunda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror e’lon qilinishi bilan tuman hokimining 2021-yil 23-fevraldagi HQ-282/02-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Turdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b **B.Yusupov**